



1991-yildan
chiqa boshlagan.

2017-yil. 2-son.

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

**LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz

Kitob – tafakkurning oltin qanoti

Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor



(3-betda) →

USHBU SONDA



Ozod va obod
Vatan tayanchi

6-bet



Milli tilshunoslik
ya ona tili ta'limi
tarraqqiyoti

Kesim talqinidagi
o'zgarishlar
va uni o'qitish
muammolari

ta'rqqiyoti

9-bet



'Ordering'
your email

27-bet



Авторское
слово

Уроки
литературного
чтения
в 5-м классе

стр. 51



Научные
исследования

О нравственно-
гуманистической
близости поэзии
Сергея Есенина
и Эркина Вахидова

стр. 79

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI



O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
2014-yil 19-dekabrda
0055-raqam bilan qayta
ro'yhatga olingan.

2017-yil. 2-son.

www.tilvaadabiyot.uz ti@zarkor.uz www.tilvaadabiyot.uz

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor DONIYOROV

Mamatqul JO'RAYEV

Shahnoza JO'RAYEVA

Islom ZOKIROV

Ulug'bek INOYATOV

Abduhamid MUXTOROV

(bosh muharrir o'rinnbosan)

Nizomiddin MAHMUDOV

Abdurahim NOSIROV

Nargiza RAHMONQULOVA

Hikmatilla RASHIDOV

Sirojiddin SAYYID

Ergash UMAROV

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV

Ergesh ABDUVALITOVA

Manzura DADAXO'JAYEVA

Lutfullo JO'RAYEV

Ehson TURDIQULOV

Valijon QODIROV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Nigora O'ROLOVA

Madina BILALOVA

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Telefon: (0 371) 244-04-18,
244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va
adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning
tahririyat nuqtayi nazariya muvofiq kelmaydigan
fikr-mulohazalarini bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar təqriz qilin-
maydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 10.02.2017-yilda topshiril-
di. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi
60x84¹/₈. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Times»
garniturası. 10, 11 kegl. «O'zbekiston» NMU
bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Navoiy ko'chasi, 30.
Buyurtma № 17-70. Adadi 14500 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA REPORTAJ

Zokir Shoyimov. Kitob – tafakkurning oltin qanoti 3

DOLZARB MAVZU

Rahmon Qo'chqor. Ozod va obod Vatan tayanchi 6

MILLIY TILSHUNOSLIK VA ONA TILI TA'LIMI TARAQQIYOTI

Bashorat Bahriiddinova. Kesim talqinidagi o'zgarishlar va uni o'qitish muammolari 9

TO'GARAK MASHG'ULOTLARI

Saida Majidova. So'z saltanatiga sayr 12

DARS – MUQADDAS

Odinaxon To'lanova. «Ot» olamiga sayhat 15

Dilorom Yo'idosheva. Hunar – hunardan unar 17

Muqaddasxon Ergasheva. Shoh va shoir Bobur 19

Shahlo Karimova. «Emas oson bu maydon ichra turmoq...» 22

METODIK TAVSIYA

Zuhra Sobirova. Alisher Navoiy asarlarini o'rgatish usullari 24

TEACHING ENGLISH

Etiquette 26

'Ordering' your email 27

TRENER MASHG'ULOTLARI

Nilufar Begibayeva. Kids' English 4 28

ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

Nafisa Yusupova. Yozuv mashqlaridan foydalanan dars samaradorligini oshiradi 33

Fotima Azizova. Teaching english idiomatic expressions and proverbs 34

Farrux Bafoye. Yaxshi pedagog so'z ustasi bo'lishi kerak 36

ADABIY TAQVIM

Rahmatilla Barakayev, Zafar Mamadalimov. Anvar Obidjonning nurli ijodi 37

TAHLIL

Ergash Ochilov. «Boburnoma»da Navoiy siymosi 41

ABITURIYENTGA YORDAM

Yorqinjon Odilov. Munosabat shakllari nima? 43

TADQIQOTLAR

Munisjon Hakimov. «Mir Alisher yonida...» 46

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUDINING 534 YILLIGI

Vahob Rahmonov, Shavkat Nishonov. Bobur yurgan yo'llardan... 49

АВТОРСКОЕ СЛОВО

Ю.Ю.Мусурманова. Уроки литературного чтения в 5-м классе 51

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Г.А.Хамраева. Выражение условных отношений в простом и сложном предложениях 55

Д.Б.Нурикова. Пословица – всем углам помощница 56

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ

Н.А.Насырова. Некоторые варианты фонетических игр

в процессе изучения русского языка 59

Н.К.Усманова. Методические аспекты изучения русской литературы

в иноязычной аудитории 62

Х.Б.Зикруллаева. Перевод интернационализмов и псевдоинтернационализмов

в научно-технических текстах 63

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

М.Р.Алижанова. Роль социальной среды в процессе формирования

национальных ценностей у студентов 65

Ф.Б.Сайдова. Совершенствование профессиональной подготовки будущих учителей 67

С.А.Мадъярова, И.В.Морхова. Модернизация педагогического образования

на основе повышения качества обучения в вузах 68

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Д.А.Азимбаева. Фразеологические единицы, обозначающие чувства и их переводы

с русского языка на узбекский 70

Б.Р.Кадирова. Генетический анализ цветообозначающих лексем 72

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Д.Н.Низамиддинов, Н.Д.Каршибаева. Волшебносказочная структура

романа М.Булгакова «Мастер и Маргарита» 75

Д.Р.Кадымова. У истоков ориентализма русской словесности 77

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

А.Б.Бабаходжаев. О нравственно-гуманистической близости

поэзии Сергея Есенина и Эркина Вахидова 79

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining FILOLOGIYA va PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsisi etilgan ilmiy nashrdir.*



Bashorat BAHRIDINOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi


KESIM TALQINIDAGI O'ZGARISHLAR VA UNI O'QITISH MUAMMOLARI

Avvalgi maqolalarda aytib o'tilganidek, mustaqillik davri o'zbek tilshunosligida tilimizning turkona tabiatidan kelib chiqib yondashish oqibatida birmuncha islohotlar yuz berdi va, o'z navbatida, ular fanning so'nggi yutuqlari sifatida ona tili ta'limga ham olib kirildi. Turkiy tillar gap qurilishida tutgan o'nidan kelib chiqib birligina kesim talqinida yuz bergan o'zgarishlarning o'zi uzlusiz ta'limga bo'g'inlarida fe'l-kesimning ifodalanishi, murakkab kesim, uyushiq kesimli sodda gaplar va ularni qo'shma gapdan ajratish, kesimdan boshqa bo'laklarning ishtirokiga ko'ra sodda gap turlarini aniqlash, eganing ishtirokiga ko'ra gap turlarini ajratish kabi mavzularni o'qitishda chigalliklarni keltirib chiqardi.

Ma'lumki, tilshunoslik tarixida gap bo'laklari, xususan, bosh bo'laklar masalasida turlicha yondashuvlar mavjud. O'zbek tilshunosligining fan sifatida shakllanishiga hissa qo'shgan aksariyat tilshunoslarmiz kesim gapning markazi bo'lagi ekanligi haqidagi fikrlarni aytishgan. Biz ushbu maqolada gap bo'laklarining o'rganilish tarixi xususida emas, bugungi kunda uzlusiz ta'limga bo'g'inlarida kesimga doir mavzularni o'qitish muammolari va ularning yechimlari xususida fikr yuritamiz.

Yaqingga qadar mavjud darslik va qo'llanmalarda gap bo'laklari bosh bo'laklar (ega, kesim) va ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) sifatida o'rganilib, gap bo'laklarining ega-kesim-to'ldiruvchi-aniqlovchi-hol tartibi hamda «Ega o'z sostavidagi bo'laklar ga hokim (shu sostavning bosh elementi) bo'lganidek, kesim ustidan ham hokimdir. Kesim egaga nisbatan tobe, o'z sostavidagi bo'laklarga nisbatan hokimdir», degan nazariya yetakchilik qilib keldi. So'nggi yillarda bu fikrga qarshi o'laroq, »Kesim gapning fikriy markazi bo'lib, gapdag'i barcha bo'laklar uning kengaytiruvchilaridir», degan qarash ilgari surildi.

Ayrim Yevropa tillari, xususan, rus, ingliz, nemis tillarida aksariyat hollarda kesim egasiz shakllana olmaydi, gapda fikr to'la ifodalanishi uchun ega ishtirok etishi shart. Masalan:



O'zbek tilida kesimni shakllantiruvchi maxsus shakllar mavjud bo'lib, bu nuqtayi nazardan gap:

- 1) grammatik shakllangan – kesim maxsus morfologik shakllar (zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor) orqali voqelangan;
- 2) semantik-funksional shakllangan – kesimlik ma'nosi so'zning lug'aviy ma'nosida mujassamlashgan, ya'ni tabiatan gap bo'lagi emas, gap bo'lib kelishga xoslangan so'z-gaplarga bo'linadi.

O'zbek tilida ham bog'lamasiz ot-kesimli gaplarda ega ishtirok etishi shart. Aks holda kesim kesim maqomiga ega bo'la olmaydi: *Men – shoir. U chiroylı.* Grammatik shakllangan gaplarda esa eganing tushirib qoldirilishi, odatda, kesimning mavqeyiga ta'sir etmaydi: (*Men*) universitetning 3-kursida o'qiyman. (*Men*) universitetning 3-kurs talabasiman.

Demak, ayni paytda uzlusiz ta'limga bo'g'ini – umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliv ta'limga darsliklarda kesimga berilgan: «Kesim gap markazi bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi», «Gapni gap qilib shakllanishida muhim bo'lgan, uning mazmuni va grammatik markazi hisoblanuvchi bo'lak – kesim», «Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal) ma'nosini ifoda etgan gapning markazi bo'lagi», «Kesim – tasdiq-inkor, zamon, modallik, shaxs-son ma'no va shakllariga ega bo'lgan so'z, gap markazini tashkil qiluvchi bo'lak» kabi ta'riflarning nazariy asosida kesimning o'zbek tili gap qurilishida tutgan o'rni yotadi.

Ko'rinib turibdiki, darsliklarda kesimga berilgan ta'riflar bir-biriga uyg'un. Ularning barchasini bir narsha – kesimlik belgisi (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl (modal) bog'lab turibdi. Demak, kesim uchun eng muhim belgi – zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor ma'nosi bo'lib, u istalgan so'z bilan ifodalanganda bu ma'no unda mujassamlashgan bo'ladi:

O'zbek	Rus	Ingliz
<i>Men o'qidim</i>	Я читал	I read. I like coffee
<i>Sen o'qidi</i>	Ты читал	You read. You like coffee
<i>U o'qidi</i>	Он читал	They read. They like coffee

Ifodalaniishi	Shaxs-son	Zamon	Mayl	Tasdiq-inkor
Fe'l bilan	<i>Universitetda o'qiyman</i>	<i>Universitetda o'qidim</i>	<i>Universitetda o'qisam</i>	<i>Universitetda o'qimayman</i>
Ot bilan	<i>Universitet talabasiman</i>	<i>Universitet talabasi edim</i>	<i>Universitet talabasi bo'lsaydim</i>	<i>Universitet talabasi emasman</i>
Sifat bilan	<i>Sen odoblisan</i>	<i>Sen odobli eding</i>	<i>Sen odobli bo'lsang edi</i>	<i>Sen odobli emassan</i>
Son bilan	<i>Biz birinchimiz</i>	<i>Biz birinchi bo'lamiz</i>	<i>Biz birinchi bo'lsak</i>	<i>Biz birinchi emasmiz</i>
Olmosh bilan	<i>Bu sensan</i>	<i>Bu sen eding</i>	<i>Bu sen bo'lsang</i>	<i>Bu sen emassan</i>

To'g'ri, kesim fe'lidan boshqa bo'laklar bilan ifodalanganda bu ma'nolarning barchasi maxsus shakllar bilan ifodalanmasligi va to'liq tuslanish tizimiga ega bo'imasligi mumkin, ammo zamon, shaxs-son, mayl va tasdiq-inkor ma'nosini har qanday kesimda voqelangan bo'ladi. Akademik I.I. Meshchaninov aytganidek, «fe'l fe'l bo'lgani uchun emas, gapda kesim bo'lib kelgani uchungina tuslanadi». Demak, tuslanish fe'lga emas, kesimga xos. Fe'l tabiatan kesim vazifasida kelishga xoslangan so'z bo'lgani uchun tuslovchilarni o'ziga ko'proq xususiylashtirgan.

Gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriysi bo'lganligi sababli o'zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so'zning va kesimlik kategoriysi shaklining valentligi belgilaydi. Gap tarkibidagi bo'laklar ana shu markaziy bo'lakni to'ldirishdagi roliga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Gap kengaytiruvchilari – gap markazini tashkil etuvchi so'zdagi kesimlik kategoriysi shakllariga bog'lanuvchi bo'laklar.

2. So'z kengaytiruvchilari – gapda ishtirok etayotgan ma'lum bir so'zning ma'noviy valentligini to'ldiruvchi bo'laklar.

Gap lisoniy qurilishida bo'laklar iyerarxiyasi (pog'onali o'rinalashuvi) quyidagicha beriladi:

kesim – ega – hoi – to'ldiruvchi – aniqlovchi.

Demak, ayni paytda «bosh bo'lak», «ikkinci daramali bo'lak» tushunchalari lingistik jihatdan biroz kuchsizlandi. Gap bitta markaziy bo'lak – kesim, kesimlik belgisini kengaytiruvchi bo'laklar – ega, hol (ega kesim tarkibidagi shaxs-son, hoi zamonni aniqlashtiradi) va kesim ifodalangan so'zning ma'nosini kengaytiruvchi bo'laklar – to'ldiruvchi, aniqlovchilardan tashkil topadi.

Darsliklarda kesim ifodalaniishi mavzusining yoritilishi biroz izohtalab. Uzluksiz ta'limning quyi bo'g'inlarida kesim va u bilan bog'liq mavzularni o'qitishda darslikda berilgan quyidagi qoida, hukmlarga asoslanish maqsadga muvofiq:

«Kesim kesimlik (shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'lagi».

«Fe'lllar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe'l maxsus shakllarga ega bo'ladi.

Turli gap bo'laklari vazifasida kelish uchun xoslanga fe'l shakllari fe'lning vazifa shakllari sanaladi. Fe'lning to'rt vazifa shakli mavjud: 1) sof fe'l shakli (o'qidi); 2) harakat nomi shakli (o'qimoq, o'qish); 3) sifatdosh shakli (o'qigan, oqar); 4) ravishdosh shakli (o'qib, kelgach):

«Fe'lning zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchala munosabat shakllari hisoblanadi. Bu shakllarga eg bo'lgan har qanday fe'l gapda kesim vazifasida keladi:

«Kesim nima qildi?, nima bo'ldi?, nima qilmoqda? kim (dir)?, nima (dir)? kabi so'roqlarga javob bo'lad Masalan, *Ishlasang, tishlaysan* maqoli ikkita kesimda tashkil topgan.

Asosiy muammo darslik va qo'llanmalarda fe'l kesimning ifodalishiga sifatdosh va ravishdosh shaklarining misol sifatida keltirilishi bilan bog'liq: «b) ravishdosh bilan ifodalangan kesim: *Uy egasi dasturxo yozguncha, Fotima ham barkashni olib keldi.* (S.A.) s) sifatdosh bilan ifodalangan kesim: *Po'lat xatni kech yuborgan*». «2. Ravishdosh bilan ifodalangan kesim *Shamol esib, qog'ozlarni uchirib yubordi.* 3. Sifatdosh bilan ifodalangan kesim: *Shu hunarni ustozidan o'rgan gan*».

Yuqorida keltirilgan qoidalardagi kesim «kesimli» (shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'lagi», degan qat'iy hukmga tayansak, ravishdosh, sifatdosh, shuningdek, harakat nomi shakllari bu belgiga ega emas. Rus, ingliz, nemis tillarida ravishdosh, sifatdosh fe'l kesim bo'lib kelish mumkin, chunki u tillarda, yuqorida aytiganidek, turkiy tillardagi kabi kesimni shakllantiruvchi maxsus shaklla mavjud emas. 6-sinf darsligida o'rinni ta'kidlanganidek harakat nomi fe'lni otga, ravishdosh ravishga, sifatdosh sifatga xoslaydi va gapda ular bajaradigan gap bo'laklari vazifasida keladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ravish ham, sifat ham, ot ham fe'l kesim vazifasida kela digan so'zlar emas.

«O'zbek tilida sodda gap doirasida kesim ham ma vaqt shaxs-son, mayl, zamon ko'rsatkichlari bilan shakllangan bo'ladi, deb uqtiriladi va bir predikativ markazdan iborat bo'lgan gap sodda gap, ikki va undan ortiq predikativ markazdan iborat bo'lgan gap qo'shma gap hisoblanadi. Lekin an'anaviy sintaksisda qo'shma gap tarkibida qo'llangan kesimlar har doim ham shu ko'rsatkichlar bilan (shaxs-son, zamon, mayl ko'rsat-



kichlari) shakllangan bo'lmaydi va shunga qaramay, bu qismlar qo'shma gapning komponentlari – sodda gap deb uqtiriladi: *Sen kelgach, men ketaman va boshqalar.* Vaholanki, *Sen kelgach..., Sen kelganda..., Sen kelgandan keyin...* kabi qurilmalarda sodda gaplarga xos bo'lgan na mazmun, na ohang tugalligi, na grammatic shakllanish (shaxs-son, zamon, mayl ko'rsatkichlari) bor. Bunday anglashilmovchilikni yuzaga keltirgan omil yuqorida ko'rib o'tilgan *Sen kelgach, men ketaman* gapining rus tilida Korda ты придешь, я уйду deb ergash gapli qo'shma gap tarzida berilishidadir».

Shunday ekan, fe'l kesim faqat sof fe'llar bilan ifodalanadi. Fanda bu borada qandaydir ilmiy bahs-munozaralar bo'lishi mumkin. Ammo ta'limda darslikda berilgan fikrlarga tayanib mavzuni shu tarzda o'qitish kesim bilan bog'liq boshqa mavzular – uyushiq kesimli gaplar, sodda va qo'shma gaplarni farqlash, ergash gapli qo'shma gaplarni ajratish kabi mavzularni o'qitishda ham chigalliklarni birmuncha kamaytiradi. Darsliklarning eng katta muammosi berilgan qoida, topshiriq shartlariga mos misollarni keltirish bilan bog'liq. Uyushiq kesimli sodda gapni tushuntirishda «*Siz a'llochi va jamoatchisiz. // Siz a'llochisiz va jamoatchisiz*» kabi

Foydalilanigan manbalar

1. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. G'.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1976. 116–117-betlar.
2. A.G'ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T.: O'qituvchi, 1987. 70-bet.
3. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. Fan va texnologiya, 2010. 414-bet.
4. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. M.Qodirov va boshq. T.: Cho'pon, 2014. 144-bet.
5. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlaring 3-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq. T.: ILM ZIYO, 2010. 160-bet.
6. B.Bahriiddanova. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi (Tur kategoriysi): Filol. fanlari nomzodi dis... Samarqand, 2002. 131-bet.
7. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. N.Mahmudov va boshq. T.: Tasvir, 2013. 208-bet.
8. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. To'ldirilgan 6-nashr. A.Rafiyev. T.: Sharq, 2013. 367-bet.
9. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis / Mualliflar jamoasi. T.: Mumtoz so'z, 2013, 312-bet.
10. Batafsil ma'lumot uchun qarang: A.Nurmonov, S.Nurmonova. Uyushiq kesim va uyushiq gap haqida. Ilmiy xabarnoma, ADU, 4-son, 2013; A.Nurmonov. Gap haqida sintaktik nazariyalar. T., 1998; H.Usmonova. O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozitsion strukturtasi Filol.fan.dok.dis.avtorefarat.T.,2009.; N.Mahmudov. Kesimning gapdagi maqomi // «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2009. 1-son.

o'zbek nutqida deyarli ishlatilmaydigan sun'iy gaplarning tanlanishi ko'pchilikning sodda va qo'shma gaplarni farqlashda shu yetarlimi, degan e'tiroziga sabab bo'lmoqda. Vaholanki, bu mavzuni tushuntirishda jonli nutqimizda keng ishlatiladigan misollar talaygina. Masalan, *Hammasini tinglardim, ammo o'xhashini topmasdim aslo.* (H.O.) *Bu safar qizlar uzoq kulishdi, chug'urlashdi, tortishishdi. Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi.* Afsuski, ushbu gaplar joriy darsliklarimizda qo'shma gap emas, uyushgan kesimni tushuntirishda misol sifatida keltiriladi.

Yuqorida darsliklardan keltirilgan qo-dalarga tayansak, gapda birdan ortiq shakllangan kesim bormi, demak, u qo'shma gap.

Gapda bir necha kesim ishtirok etib, ulardan faqat bittasi (oxirgisi) shakllangan bo'lsa, bu uyushiq kesimli sodda gap. Masalan, *Men uch yildan buyon shu shaharda yashab, ishlab, o'qib kelyapman. U yosh, go'zal va latofatl edi.* Uyushiq bo'lakli gaplarga tegishli «grammatik shakllar uyushgan bo'laklarning har biriga ham, faqat oxirgisiga ham qo'shilishi mumkin» qoidasi uyushiq kesimga amal qilmaydi. Chunki bunday holda gap qo'shma gapga aylanadi. Agar gapda bir necha kesim ishtirok etib, ulardan faqat bittasi shakllangan bo'lsa-yu, har birining o'ziga tegishli egasi bo'lsa, bu boshqa masala. Masalan, *O'shanda singlim o'n yosha, ukam besh yosha edi.* Bu tipdagи gaplar sodda va qo'shma gaplar orasida «koraliq uchinchi» maqomiga ega bo'lib, uyushgan gaplar sifatida ta'limning yuqori bosqichlarida o'qitib boriladi.

Xullas, darsliklarimizda izohtalab, munozarali o'rinnlarning mavjudligi sir emas. Bu bugungi kun o'qituvchisining faqat darslik bilan emas, balki darslikning nazariy asoslari yoritilgan, darslik ortida yotgan manbalar bilan tanish bo'lishi, qolaversa, fanning so'nggi yutuqlariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlardan xabardor bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlab borishini taqozo etadi.